

**FRANSUZ XALQINING MENTALITETI VA QADRIYATLARINI AKS  
ETTIRUVCHI RANG OBRAZLARI**  
(oq va qora rang misolida)

**Doliyeva Laylo Buriboyevna**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), SamDCHTI dotsenti*

**Ro'ziqulova Sevinch**

*Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi*

**Tel: +998954800607**

[roziqulovasevinch680@gmail.com](mailto:roziqulovasevinch680@gmail.com)

**Begmatov Husan**

*Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi*

**Tel: +998995569888**

[husanbeksamdchti@gmail.com](mailto:husanbeksamdchti@gmail.com)

**Muxamadiyeva Marjona**

*Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi*

**Tel: +998939890266**

[muxamadiyevamarjona2@gmail.com](mailto:muxamadiyevamarjona2@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fransuz tilidagi rang komponentli frazeologik birliklar lingvomadaniy va kognitiv-semantik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida oq va qora rang asosidagi frazeologizmlarning ma'no tuzilishi, ramziy mazmuni hamda fransuz xalqining madaniy-mental qarashlari bilan bog'liqligi yoritiladi. Maqolada ranglar nafaqat tasvir unsuri, balki xalqning tarixiy xotirasi va madaniy identitetini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik kod sifatida talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** rang komponenti, frazeologizmlar, lingvomadaniyat, metafora, oq rang, qora rang, fransuz tili, kognitiv semantika.

**Аннотация:** В данной статье анализируются фразеологические единицы французского языка с цветовыми компонентами в лингвокультурологическом и когнитивно-семантическом аспектах. Исследование раскрывает семантическую структуру и символическое содержание фразеологизмов с компонентами белый и чёрный, а также их связь с культурно-ментальными особенностями французского народа. Цвет выступает не только как элемент описания, но и как значимый лингвокультурный код, отражающий историческую память и культурную идентичность народа.

**Ключевые слова:** *цветовой компонент, фразеологизмы, лингвокультурология, метафора, белый цвет, чёрный цвет, французский язык, когнитивная семантика.*

**Abstract:** *This article examines French color-based idiomatic expressions from a linguocultural and cognitive-semantic perspective. The study analyzes the semantic structure and symbolic meanings of idioms with white and black components, highlighting their connection to the cultural and mental worldview of the French people. Colors are interpreted not only as descriptive elements but also as significant linguocultural codes reflecting the nation's historical memory and cultural identity.*

**Keywords:** *color component, idiomatic expressions, linguoculture, metaphor, white color, black color, French language, cognitive semantics.*

Til har qanday xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari hamda dunyoqarashini o‘zida mujassam etuvchi muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Til vositalari orqali jamiyatning estetik didi, ijtimoiy munosabatlari, tarixiy xotirasi hamda madaniy an‘analari namoyon bo‘ladi. Ayniqsa frazeologik birliklar tilning obrazli qatlamini tashkil etib, ular orqali xalqning mental xususiyatlari va qadriyatlar tizimi yanada aniqroq ifodalanadi. Frazeologik birliklar tilshunoslikda barqaror semantik tuzilishga ega bo‘lgan, ko‘pincha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va nutqda tayyor holda ishlatiladigan birliklar sifatida tavsiflanadi. Ular tilning obrazlilik va ekspressivligini oshiradi hamda xalqning kollektiv tajribasini ifodalovchi lingvistik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli frazeologiya nafaqat tilshunoslik, balki lingvokulturologiya, etnolingvistika va madaniyatshunoslik bilan ham uzviy bog‘liq ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Frazeologik birliklarning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ular til egalarining dunyoni qanday idrok etishini ko‘rsatadi. Har bir xalq o‘zining tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy tajribasi va madaniy qadriyatlariga mos ravishda turli obrazli ifodalarni yaratadi. Shu sababli frazeologizmlarni o‘rganish orqali muayyan xalqning mentaliteti va dunyoqarashini chuqurroq tushunish mumkin.

Fransuz tilida rang komponentli frazeologik birliklar ayniqsa boy semantik maydon hosil qiladi. Ranglar bu birliklarda faqat predmetning tashqi belgisi sifatida emas, balki ma’lum ramziy ma’no tashuvchi lingvomadaniy kod sifatida namoyon bo‘ladi. Rang obrazlari orqali insonning hissiy holati, ijtimoiy mavqei, estetik qarashlari yoki ruhiy kechinmalari ifodalanishi mumkin. Fransuz xalqining mentaliteti ko‘pincha estetik did, muvozanatga intilish, nozik kinoya, diplomatik muloqot va intellektual tafakkur bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlar til tizimida ham o‘z aksini topadi. Rang obrazlari aynan shu mental xususiyatlarning lingvistik ifodasini yaratadi. Masalan, ayrim ranglar hissiy keskinlikni ifodalasa, boshqalari intellekt, yashirin ta’sir yoki ijtimoiy bahoni bildiradi.

Fransuz tilida oq rang ko‘pincha poklik, begunohlik, ishonch va ochiqlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga ayrim frazeologik birliklarda u qo‘rquv yoki jismoniy zaiflikni ham ifodalashi mumkin. Bu holat rang metaforalarining kontekstga qarab turli ma‘nolarni anglatishini ko‘rsatadi.

Frazeologik birlik	So‘zma-so‘z tarjima	Ko‘chma ma‘no
montrer patte blanche	oq panjasini ko‘rsatmoq	ishonchni isbotlamoq
être blanc comme un linge	matodek oppoq bo‘lmoq	qo‘rquvdan oqarib ketmoq
être blanc de peur	qo‘rquvdan oppoq bo‘lmoq	juda qo‘rqmoq
blanc comme neige	qordek oppoq	begunoh, aybsiz
donner carte blanche	oq karta bermiq	to‘liq vakolat bermiq
mariage blanc	oq nikoh	formal nikoh

Fransuz frazeologiyasida oq rangning semantikasi ko‘pincha ijobiy konnotatsiya bilan bog‘liq. Masalan, *blanc comme neige* iborasi insonning begunoh yoki aybsiz ekanini bildiradi. Bu birlik fransuz mentalitetida poklik va halollik muhim axloqiy qadriyat ekanini ko‘rsatadi.

*Donner carte blanche* iborasi ham qiziqarli semantikaga ega. Ushbu birlik biror shaxsga to‘liq erkinlik yoki vakolat berishni anglatadi. Bu ibora fransuz jamiyatida ishonch va mas‘uliyat tushunchalari muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga oq rang ayrim hollarda insonning jismoniy holatini tasvirlash uchun ishlatiladi. Masalan, *être blanc comme un linge* yoki *être blanc de peur* iboralari inson qo‘rquv yoki hayajon tufayli oqarib ketganini bildiradi.

Fransuz madaniyatida hissiy reaksiyalarni rang orqali ifodalash keng tarqalgan. Bu esa tilning obrazli imkoniyatlarini oshiradi. *Mariage blanc* iborasi esa formal nikohni bildiradi. Bu yerda rang tashqi shakl va ichki mazmun o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Demak, oq rang fransuz frazeologiyasida quyidagi semantik ma‘nolar bilan bog‘lanadi:

- poklik va begunohlik
- ishonch va erkinlik
- jismoniy zaiflik yoki qo‘rquv
- tashqi shakl va ichki mazmun o‘rtasidagi tafovut

Bu holat rang metaforalarining turli kontekstlarda turlicha ma‘no kasb etishini ko‘rsatadi.

Fransuz tilida qora rang ko‘pincha salbiy emotsiyalar, pessimistik qarashlar yoki yashirin faoliyat bilan bog‘liq semantik maydon hosil qiladi. Bu rang ko‘plab Yevropa madaniyatlarida ham qorong‘ilik, noma‘lumlik yoki xavf ramzi sifatida talqin qilinadi.

Fransuz frazeologiyasida ham noir komponentli birliklar insonning ruhiy holati, jamiyatdagi salbiy hodisalar yoki ijtimoiy bahoni ifodalashda keng qo‘llanadi.

Frazeologik birlik	So‘zma-so‘z tarjima	Ko‘chma ma’no
broyer du noir	qorani maydalamoq	tushkunlikka tushmoq
voir tout en noir	hammasini qora ko‘rmoq	pessimist bo‘lish
regarder d’un œil noir	qora ko‘z bilan qaramoq	g‘azabli qarash
marché noir	qora bozor	noqonuniy savdo
liste noire	qora ro‘yxat	taqiqlangan shaxslar ro‘yxati
travail au noir	qora ish	norasmiy yoki noqonuniy mehnat

Yuqoridagi birliklar fransuz tilida qora rang qanday semantik ma’no yukini ko‘tarishini ko‘rsatadi. Masalan, *broyer du noir* iborasi fransuz tilida keng qo‘llanadigan frazeologik birliklardan biri hisoblanadi. Bu ibora insonning tushkun kayfiyatda bo‘lishini yoki hayotga pessimistik qarashini bildiradi.<sup>170</sup> Bu yerda qora rang ruhiy og‘irlik va pessimistik kayfiyat ramzi sifatida ishlatiladi.

Fransuz mentalitetida hissiy holatlarni obrazli ifodalash muhim hisoblanadi. Shu sababli oddiy “être triste” (xafa bo‘lmoq) o‘rniga *broyer du noir* iborasining ishlatilishi nutqni yanada obrazli qiladi. Bu esa fransuz tilining metaforik boyligini ko‘rsatadi.

Shuningdek *voir tout en noir* iborasi ham pessimist qarashni ifodalaydi. Bu yerda inson har qanday vaziyatni salbiy tomondan ko‘rishga moyil bo‘ladi. Ushbu birlik fransuz tilida psixologik holatni tasvirlashda rang metaforasining qanday ishlatilishini ko‘rsatadi.

Qora rang bilan bog‘liq yana bir guruh frazeologik birliklar ijtimoiy hodisalarni ifodalaydi. Masalan, *marché noir* iborasi noqonuniy savdo faoliyatini bildiradi. Ushbu birlik tarixan urush davrlarida paydo bo‘lgan bo‘lib, yashirin iqtisodiy faoliyatni anglatadi. Bu yerda qora rang yashirinlik va qonuniylikdan chetga chiqish ramzi sifatida ishlatiladi.

Xuddi shunday *travail au noir* iborasi ham norasmiy yoki soliqsiz ishlashni bildiradi. Bu ibora fransuz jamiyatida iqtisodiy munosabatlar va ijtimoiy nazorat tizimi bilan bog‘liq semantik maydon hosil qiladi.

*Liste noire* iborasi esa ishonchsiz yoki taqiqlangan shaxslar ro‘yxatini bildiradi. Bu birlik ijtimoiy baholash va nazorat jarayonini ifodalaydi. Demak, qora rang fransuz tilida nafaqat hissiy holatni, balki ijtimoiy me’yorlarni ham ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi.

Shunday qilib, fransuz frazeologiyasida qora rang quyidagi ramziy ma’nolar bilan bog‘lanadi:

<sup>170</sup> Robert P. Le Petit Robert: Dictionnaire de la langue française. – Paris: Le Robert, 2018

- pessimistik kayfiyat
- ruhiy og‘irlik
- yashirin faoliyat
- noqonuniy iqtisodiy jarayonlar
- ijtimoiy baholash va nazorat

Bu holat fransuz mentalitetida ranglarning nafaqat estetik, balki ijtimoiy funksiyaga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Rang komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili shuni ko‘rsatadiki, fransuz tilidagi rang obrazlari nafaqat estetik kategoriya, balki xalqning dunyoqarashi, mental qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini ifodalovchi muhim semiyotik tizimdir. Oq rangning poklik, ishonch va erkinlik, qora rangning esa pessimistik kayfiyat, yashirin faoliyat yoki ijtimoiy nazorat bilan bog‘lanishi fransuz xalqining qadimiy ramziy tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq. Frazeologik birliklardagi bunday rang metaforalari milliy tafakkurning obrazli ifodasi bo‘lib, ular orqali fransuz jamiyatining hissiy-estetik qarashlari, axloqiy mezonlari, ijtimoiy baholash tizimi va madaniy xotirasi namoyon bo‘ladi. Shu bois rang komponentli frazeologizmlarni o‘rganish tilning ichki semantik dinamikasini ochish bilan birga, xalqning madaniy ongini ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doliyeva L. Fransuz frazeologiyasida rang va ruhiyat oppozitsiyasi // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 2020. – №4 (77). – B. 129-135.
2. Xakimova S. Rang komponentli frazeologik birliklarning lingvamadaniy xususiyatlari // Innovatsion tadqiqotlar. – 2024. – №3(12). – B. 21–25.
3. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Bourdieu P. La Distinction : Critique sociale du jugement. – Paris: Éditions de Minuit, 1979.
5. Dubois J. Dictionnaire de linguistique. – Paris: Larousse, 2002.
6. Rey A. Dictionnaire des expressions et locutions. – Paris: Le Robert, 2016.
7. Robert P. Le Petit Robert: Dictionnaire de la langue française. – Paris: Le Robert, 2018